

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYALAR INSTITUTI

«Elektrotexnika va ishlab chiqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari» fakulteti

«Axborot kommunikatsiya texnologiyalari» kafedrasи

5111018 – Kasb ta`limi («Informatika va axborot texnologiyalari») ta`lim yo`nalishi bo`yicha

**«Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining
Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: **12-14 MIAT guruhi talabasi Razzoqova Mavluda**

Rahbar: **katta o'qituvchi. Murodova F.R.**

Himoyaga ruxsat etildi

«____ » _____ 2018 y.

Kafedra mudiri: _____ dots. Yo`ldoshev SH.S.

DAK kotibi: _____ R.B.Sariyev

BUXORO – 2018

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi		Razzoqova.M				
Rahbar		Muradova.F				

MUNDARIJA

KIRISH ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

I-BOB. “BOSHQARUV TEXNIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLAR BAZASI ” MODULINI O’QITISHNING NAZARIY MASALALARIOШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

1.1. Ma`lumotlar bazasi taraqqiyotining ustuvor yo`nalishlari.

1.2. “BOSHQARUV TEXNIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLAR BAZASI ” modulini o’qitishdagi innovatsiyalar va ilg’or xorijiy tajribalar.

2-BOB. “BOSHQARUV TEXNIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLAR BAZASI MODULINING” O’QUV MODULI ISHLANMASIOШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

2.1. Moodle tizimida “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanining “BOSHQARUV TEXNIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLAR BAZASI MODULINING” o’quv kursini yaratish. 34

2.2. Mavzu yuzasidan keyslar to’plami, topshiriqlar, ishlanmalar o’quv mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi va modeli 45

III. BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI..... 54

3.1 Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda xavfsizlik asoslari..... 54

3.2 Komp’yuter xonasiga qo`yiladigan talablar..... 58

3.3 Komp’yuter bilan ishlaganda charchash sabablari 60

XULOSA ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAROШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

ILOVALAR ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

O’zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma’lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

KIRISH

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur`atlar bilan rivojlanishi, axborot tizimlarining jamiyat hayotida tobora chuqur o'rinnegallashi, hamda O'zbekistonning global axborot jamiyatiga kirib borishi o'z navbatida ma'lumotlar bazasini tashkil qilish va boshqarish yo'nalishida bir qator vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Bu vazifalarni hal qilmasdan, respublikada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalarni joriy etish va global axborot jamiyatiga kirib borish ko'pgina qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bitiruv ishining dolzarbligi. Respublikamiz Prezidenti Oliy Majlisning XIV-sessiyasida “yangi darsliklarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur” ligini alohida ta'kidladilar. Bugun olimlar va o'qituvchilar ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga astoydil kirishishlari shart va ular bu ishga mas`uldirlar. Bu sohaga yaqin xorijiy davlatlarda ham e'tibor kuchaytirilmoqda.

Shuning uchun ham bugungi kunda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida hamda xorijiy ilg'or tajribalardan foydalanib amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir [2].

Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi va uni boshqarish muammosi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumotlar bazasi faoliyatini taminlash muammosi ko'p qirrali bo'lib, mavqe, aloqa, axborotga murojaat qilishni ta'minlash kabi masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat turli sohalarining rivojlanishi xususan, turli mavzuli portallar va ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatiladigan axborot oqimlari hajmlarining ko'payib borishi bilan tavsiflanadi. Axborot ko'lamining oshishi uni qayta ishlashga qaratilgan

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

usul va texnologiyalarni yaratish bo'yicha sa'y-harakatlar doimiy ravishda oshib bormoqda.

Butun jahonda ma'lumotlarga tezkor va aniq murojaatni ta'minlash usuli sifatida ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va SQL dasturlash tili tan olingan. Hozirgi kunga qadar ma'lumotlar bazasi va SQL dasturlash tili axborotni qayta ishlashning eng ishonchli vositalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa jahonda katta axborot oqimlari bilan ishlashning rivojlanishiga olib kelmoqda. Shu sababli hozirda insonlarni va jamiyatni kerakli axborot bilan tez suratlarda taminlash muammosi dolzarb masala bo'lib, kompleks echimni taqozo qilib kelmoqda.[1]

Bitiruv ishining maqsadi. “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanining “Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining” moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish mavzusidagi modulni o’rganishdan maqsad - tinglovchilarga ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar, ular haqidagi bilimlar, malakalar va ko'nikma tizimini shakllantirish va zamonaviy o'qitish texnologiyasini o'quv jarayonida qo'llashni o'rgatish. Bundan tashqari, o'qitishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish, induviduallashtirilgan o'qitishni tashkil qilishga doir ishlanmalar namunasini yaratish va o'qitishni takomillashtirish bo'yicha amaliy xulosa, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv ishining vazifasi. Quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” faniga oid ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil etish, ilmiy-nazariy, amaliy asoslarini o’rganish hamda taraqqiyotining ustivor yo'naliishlarini nazariy va amaliy tahlil qilish;

Ikkinchidan, “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llarini yoritish;

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

Uchinchidan, “Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining” moodle tizimidagi elektron papkasini yaratishni ” mazmun mohiyatini ochib berish;

To'rtinchidan, “Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining” moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish bo'yicha individuallashtirilgan ta`limni tashkil qilish uchun amaliy ishlanmalarni tayyorlash;

Beshinchidan, oliy ta`lim muassasalarida “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv ishining ob`ekti. Buxoro muhandislik-texnologiya institutining barcha ta`lim yo'nalishida o'qitiladigan “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fani sohasidagi nazariy masalalar va tashkiliy xarakterga ega bo'lgan hujjatlarni o'rganish hamda shu faoliyat bilan band bo'lgan o'qituvchilar fikrlari va o'quv-tarbiya jarayoni tashkil etadi.

Mavzuning predmeti. Oliy ta`lim muassasalarida “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanining mazmun mohiyatini o'rganish hamda uni nazariy va amaliy tadqiq etish hisoblanadi.

Bitiruv ishining nazariy va amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

“Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanining Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulini yaratishda zamonaviy yangi Pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya tizimlarini qo'llash orqali ta`lim berishda yuqori samaradorlikka erishiladi;

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar MBBT bilan ishlashning asosiy texnologik bosqichlari asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Shu bilan birga, tadqiqot natijasida olingan xulosalar “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fani bo'yicha tashkiliy xarakterga ega bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqish uchun dars ishlanmasi bo'lishi mumkin. Olingan ma'lumotlar, xulosa va amaliy tavsiyalardan “Texnik tizimlarda axborot

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
	Bajardi	Razzoqova.M				
	Rahbar	Muradova.F				

texnologiyalari” fanini o’qitish va o’qitishni takomillashtirishda, hamda o’qituvchi va ta’lim oluvchilar bilan amaliy ish olib borishda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv ishi kirish, ikki bob, matndagi asosiy tushunchalar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan iborat holda yoritib berildi. Bitiruv ishida 10 ta adabiyotdan va 11 ta turli xil saytlardan foydalanildi. Ishning asosiy hajmi 75 betni tashkil etadi.

O’zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma’lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
	Bajardi	Razzoqova.M				
	Rahbar	Muradova.F				

**I. “BOSHQARUV TEXNIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLAR
BAZASI MODULINING” MOODLE TIZIMIDAGI ELEKTRON
PAPKASINI YARATISH NING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA
AFZALLIKLARI**

1.1. Ma`lumotlar bazasi taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari.

Insoniyat tomonidan katta miqdordagi bilimning to’planishi, turli xil axborotlarni saqlash masalasini hal qilishni talab etadi. Bunda axborotlarni saqlash yagona maqsad hisoblanmaydi, balki u kerakli ma`lumotlardan kerakli vaqtida foydalana olish, turli hujjatlarni qayta ishlashdir. Inson uchun axborotlarni to’plashda uning barcha sezgi organlari xizmat qilsa, katta hajmli axborotlarni tez to’plash va tahlil qilishi uchun esa bu yetarli emas. Buning uchun maxsus texnik vositalar talab qilinadi. Shu sababli, axborotlar ustida bajariladigan asosiy amallar – ularni to’plash, qayta ishlash va uzatish amallarini bajarish uchun turli vositalarga bo’lgan ehtiyoj ortib borgan. Natijada, har xil uskunalar va texnikalar hamda hozirgi kompyuter texnikalari yaratildi.

Zamonaviy kompyuterlar amalda hamma narsani bajarishi mumkin, lekin buning uchun odamning o’zi nimani istayotganligini aniq bilishi, eng muhim mashinaga buni qanday bajarish kerakligini tushuntirib bera olishi, ya`ni uni faqat yozma tarzda taqdim qilishi shart. Kompyuterga axborotni kiritish va u ustida turli amallarni bajarishni talab qilish uchun yozma tarzda taqdim qilinadigan maxsus ko’rsatmalar ketma-ketligidan, ya`ni dasturlardan foydalaniladi. Katta hajmli axborotlarga bog’liq har xil amallarni bajaradigan ushbu dasturlar majmuasi axborot tizimlari deb ataladi. Ularni jamiyatning turli sohalarida qo’llanilishi quyidagi masalalarni tez va oson hal etish imkonini yaratadi:

- matematik uslublar va intellektual tizimlarni tadbiq etish hisobiga boshqaruv topshiriqlarining ancha oqilona natijalarini olish;
- avtomatlashtirish hisobiga xodimlarni ishini yengillashtirish;
- axborotning ishonchlilagini ta`minlash;
- muassasada axborot oqimi tuzilishi va hujjat aylanishi tizimini takomillashtirish;

O’zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma’lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
	Bajardi	Razzoqova.M				
	Rahbar	Muradova.F				

- mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatini kamaytirish;
- yangi mahsulotlarni topish va mahsulot yetkazib beruvchilarni korxona bilan aloqasini o'rnatish.

Axborot tizimi saqlaydigan va ishlov beradigan katta hajmdagi ma'lumotlar to'plami, tizimning axborot ta'minotini tashkil qiladi. Axborot ta'minotining asosiy vazifasi moddiy ob`ektlarni boshqarish va samarali qarorlar qabul qilish uchun tizimni aniq ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir.

Axborotlash jamiyatining rivojlanishi, axborot oqimlarining tobora ortib borishi, ma'lumotlarning tez o'zgarishi kabi holatlar insoniyatni axborot tizimining axborot ta'minoti bilan ishlashini takomillashtirish choralarini qidirib topishga undadi. Dasturning ma'lumotlarga bog'liq emasligi kontseptsiyasining muvofaqqiyati 1962 yilda MB kontseptsiyasini vujudga kelishiga zamin bo'ldi, ya`ni:

- Axborot tizimi ma'lumotlari operatsion tizimlar quvvatlovchi fayllarga joylashtiriladi.
- Fayllarning jismoniy tuzilmasi qayd qilib qo'yiladi, bu asos orqali mantiqiy tuzilma taqdim qilinadi.
- Ma'lumotlarni olish so'rovlariga ishlov berish, ma'lumotlarni manipulyatsiya qilishning maxsus interfeysi orqali amalga oshiriladi.
- Protsedura orqali ma'lumotlarga ishlov berishning yagona nuqtai nazari asosida dasturlar ishlab chiqiladi.

MB kontseptsiyasi avtomatlashtirilgan axborot tizimining rivojlanishi jarayonida pishib bordi va natijada ma'lumotlarni alohida, amaliy dasturlarga bog'liq bo'limgan holda saqlash, ya`ni MB da saqlash vujudga keldi. Keyinchalik dasturchilarning ma'lumotlar to'g'risidagi tasavvurlari kabi, ma'lumotlarning jismoniy saqlanishi va tashkil etilishi ham o'zgardi hamda ma'lumotlarning jismoniy va mantiqiy mustaqilligi tavsiyalandi, ya`ni:

- *Ma'lumotlarning jismoniy mustaqilligi.* Ma'lumotlarni ma'lumot tashuvchilarga yozish va ularga murojaat qilish uslublarining qo'llanilishi amaliy dasturiy mahsulotlarga bog'liq bo'lmasligi lozim. Jadval saqlanayotgan fayl

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

boshqa diskka ko'chirilsa yoki nomi o'zgartirilsa, bu amaliy dasturlar ish jarayoniga hech qanday ta'sir qilmasligi lozim.

○ *Ma'lumotlarning mantiqiy mustaqilligi.* Amaliy dasturlar ish jarayoni MB mantiqiy cheklanishlarga bog'liq bo'lmasligi lozim. Agar MB dagi jadval ikkiga ajratilsa, u holda taqdim orqali ular birlashtirilsa bu ilovalarga hech qanday ta'sir qilmasligi lozim.

Fan-texnikaning rivojlanishi natijasida MB da ma'lumotlarni joylashtirish tuzilmasi, ya`ni ma'lumotlar modellari ishlab chiqildi va aniq tuzilmali MB axborot tizimlarining asosini uzil-kesil tashkil qildi. MB ni boshqarish uchun alohida maxsus dasturlar majmuasi yaratildi va ular ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT) deb atala boshlandi. Zamonaviy MB texnologiyasida MB ni yaratish, unga xizmat ko'rsatish va foydalanuvchilarni MB bilan ishlashiga imkon yaratish maxsus MBBT muhitida amalga oshiriladigan bo'ldi.

MB bu kompyuter yordamida qidirib topilishi va qayta ishlatish mumkin bo'lgan tarzda tartibga solingan ma'lumotlar to'plamidir.

MB ob`ekt yoki ob`ektlar to'plami holatini, ularning xossalari va o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi nomlangan ma'lumotlar to'plamini ifodalaydi.

MB ga ob`ektning axborot modeli deb qarash mumkin va u ma'lumotlar to'plamini cheksiz ko'p marta ishlata olish uchun kerak.

MB ni keng miqyosda ishlatilishi quyidagi faktorlar bilan aniqlangan:

- operativligi (ma'lumotlarga tez va operativ kirish imkoniyati);
- o'ng'ayligi (istalgan talabga javob ola olishligi, ma'lumotlarni takomillashtirish va o'zgartiruvchi effektiv usullarning mavjudligi);
- himoyalanganligi va yaxlitligi (ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish mumkin emasligi hamda kompyuter texnik vositalarining nosozligidan himoyalanganligi).

Mukammal matematik asosga ega bo'lgan MB va ular bilan ishlovchi texnologiyalarning hamda MBBT yaratilishi natijasida, ulkan hajmdagi, turli strukturali axborotni saqlashning ishonchli, arzon va samarali imkoniyatlari vujudga keldi. MB biror bir MBBT muhitida saqlanishi, faoliyat yurita olishi,

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

uning talablariga bo'y sunishi, undan foydalanishni tashkil qilishi singari vazifalarni bajarganligi uchun MBBT siz tasavvur qilish mumkin emas. Shu sababli MBBT taraqqiyoti yo'naliishlari bevosita MB ga ham tegishlidir va ular haqida ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

MBBT - MBning ma'lumotlarini boshqarish funktsiyasini bajaruvchi dasturiy ta`minotidir.

MBBT quyidagi vazifalarni bajaradi:

- MB da joylashgan ma'lumotlarni ko'rish;
- MB ga yangi yozuvlarni kiritish;
- MB yozuvlarini tahrirlash;
- MB dan tegishli hisobotlarni olish;
- MB yozuvlaridan nusxa olish va boshqalar.

MBBT da asosan quyidagi ish mexanizmlari eng ko'p ishlataladi:

- yangi kiritilgan qiymatlarni o'z formatiga muvofiq tarzda xotirada jismoniy joylashtirish mexanizmi;
- so'ralgan ma'lumotlarni izlash mexanizmi;
- bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchilarning turli xil so'rovlariga tezda bir vaqtning o'zida mutanosib tarzda javob berish mexanizmi;
- ruxsat berilmagan kirishlar va nomutanosib o'zgartirishlarda himoyalash usullari mexanizmi;
- MB ni ishchi holatda doimo saqlash va MBBT ning boshqa ko'pgina xizmatlari.

Zamonaviy MBBT lari quyidagi talablarni ta`minlashi lozim:

- ma'lumotlarning mustaqilligi;
- talablarning kuchli tili;
- javob (sado berish)ning qisqa vaqt;
- ma'lumotlar va kataloglarni qayta tashkil etishni qisqartirish yoki ulardan voz kechish.

MBBT da ma'lumotlarning mustaqilligi asosiy, talablarning kuchli tili esa foydalanuvchining talablarini qondirishning muhim shartidir. Bu tillar assotsiativ

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

manzillashtirish va ma`lumotlar to`plami bilan amallar bajarish vositalariga ega. Bu esa o`z navbatida kompyuterlar yangi qurilmalarining ichida ulardan samarali foydalanishga sharoit yaratadi.

Istalgan MB yadrosini ma`lumotlar modeli tashkil qilib, u ma`lumotlar to`plamidan, yaxlitlikni ta`minlovchi cheklanishlardan va ma`lumotlar bilan manipulyatsiya qilish operatsiyalaridan tashkil topadi.

Ma`lumotlarni o`zaro bog`liqligini tashkil qilish, saqlash, ularni to`liq namoyon eta bilish, ularga murojaat qilish uslubi va kerakli vaqtida olish mexanizmini bayon etilishi ma`lumotlar modelidir.

Ma`lumotlar modeli quyidagi tarkibiy qismdan iborat:

1. *Foydalanuvchining MB ga munosabatini namoyish etishga mo`ljallangan ma`lumotlar tuzilmasi.*

2. *Ma`lumotlar tuzilishida bajarilish mumkin bo`lgan operatsiyalar.* Ular ko`rib chiqilayotgan ma`lumotlar modeli uchun ma`lumotlar tilining asosini tashkil etadi. Ma`lumotlarni aniqlash tili va ma`lumotlar bilan amallar bajarish tilining turli operatsiyalari yordamida bu tuzilma bilan ishlash imkoniga ega bo`lish zarur.

3. *Yaxlitlikni nazorat qilish uchun cheklashlar.* Ma`lumotlar modeli uning yaxlitligini saqlash va himoya qilishga imkon beruvchi vositalar bilan ta`minlangan bo`lishi lozim.

MBBT da har bir MB modeli quyidagi xususiyatlari bo`yicha tavsiflanadi:

- ma`lumotlar tuzilmalarining turi;
- ma`lumotlar ustida bajariladigan amallar;
- butunlikning cheklanganligi.

MB ni yaratishga kirishishdan oldin ma`lumotlarni tasvirlash modelini tanlab olish kerak. U quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- axborotni ko`rgazmali tasvirlash;
- axborotni kiritishda soddalik;
- axborotni izlash va tanlashda qulaylik;
- boshqa MB ga kiritilgan ma`lumotdan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

O`zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma`lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

- MB ning ochiqligini ta`minlash (yangi ma`lumotlar va maydonlar qo'shish, ularni olib tashlash imkoniyatlari va h-zo).

MB da ma`lumotlar shunday tashkil etilgan bo`lishi lozimki, foydalanuvchilar va amaliy dasturlar, ularni olishi va qayta ishlashi mumkin bo`lsin. MB da ma`lumotlarni tashkil etilishiga muvofiq ko`plab mutaxassislar bugungi kunda MB ni qurishga uch xil yondashish mumkin deb hisoblashadi: daraxtsimon (ierarxik), tarmoqli (to'rli) va relyatsion modellar. Bulardan tashqari yana MB ning binar munosabatlar, semantik, fayl, ob`ektga yo'naltirilgan, analitik model kabi bir qator turlari mavjud. Shuning uchun, biz MB tuzilmasi modellarini guruhlarga ajratamiz: relyatsiongacha, relyatsion va relyatsiondan keyin.

Hozirgi kunda asosan relyatsion MB qo'llanilib kelinmoqda va shuning uchun biz ushbu model doirasida fikr yuritamiz.

Ma`lumotlarning relyatcion modellari. Ierarxik va tarmoqli modellarning kamchiliklarini bartaraf etish ustida izlanishlar olib borildi. Natijada, 1970 yil IBM firmasining xodimi E.F.Kodd tomonidan munosabatlarning matematik nazariyasi asosida relyatsion model g'oyasi ishlab chiqildi va u hozirgi paytda eng ko'p tarqalgan model hisoblanadi.

Relyatsion (lotin tilidagi relatio-munosabat so'zidan olingan) modelda ma`lumotlarni saqlash, uni tashkil etuvchi qismlari orasidagi munosabatlarga asoslangan. Ma`lumotlarning jadval ko'rinishida berilishi ma`lumotlarning relyatcion modeli deyiladi. Relyatsion modelli MB dagi malumotlar oddiy ikki o'lchovli jadvallarda saqlanadi va jadvallar o'zaro bir-biri bilan bog'lanadi. Ular orasidagi o'rnatilgan bog'liqlik qayta ishlash samaradorligini oshiradi hamda bir xil ma`lumotlarning takrorlanishini kamaytiradi.

Jadvallarda ustunlar maydonlar yoki atributlar, satrlar yozuvlar deb ataladi. Atributlar MB ning tuzilmasini, yozuvlar esa, unda joylashgan ma`lumotlarni tashkil etadi.

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma`lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

Jadvaldag'i ma'lumotlar manzili satr va ustunlar kesishmasi bilan aniqlanadi.

Atribut – jadval ustunlari

Yozuv – atributlar yig'indisi yoki jadval satri

Jadval yachevkasi – atribut va yozuv kesishmasi

Relyatsion modelda MB bo'yicha har bir jadval takrorlanmas nomga ega bo'ladi. Jadvallarga esa birqancha talablar qo'yiladi:

- jadval yachevkasi qiymati tuzilma bo'yicha bo'linmasdir. Har bir yachevka qiymatlarning faqat bir qismini olishi mumkin. Bu xossa ko'pincha ma'lumotning bo'linmaslik printcipi ham deyiladi;
- bir atribut (ustun) qiymatlari bir tipga ega;
- har bir yozuv (qator, satr) takrorlanmasdir;
- atributlar (ustunlar) ixtiyoriy tartibda joylashtiriladi;
- yozuvlar (qatorlar, satrlar) jadvalga ixtiyoriy tartibda joylashtiriladi;
- atributlar (ustunlar) takrorlanmas nomga ega.

Jadvalning tuzilishi ustunlarning yig'indisi bilan belgilanadi. Jadvalning har bir satrida tegishli ustunga mos keluvchi bittadan mazmun joylashgan bo'lib, unda ikkita bir xil satr bo'lishi mumkin emas. Ustunlar soni chegaralangan bo'lsada, satrlarning umumiyligi soni chegaralanmagan. Jadvalda ustun va satrlarning joylashish tartibi ahamiyatga ega emas.

Yozuvlarning yagonaligini ta'minlash uchun jadvalning bir yoki bir necha maydonlaridan iborat bo'lgan kalitlardan foydalaniladi. MBBT ga qo'yiladigan talablardan biri katta hajmdagi axborotlar ichidan yozuvlarni tezroq topish imkoniyatidir. Kalitli maydonlar bu ishni bajarishni tezlashtirishga imkon beradi.

Ma'lumotlar relyatsion asoslarining ayrim afzallik (ustunlik)lari:

- *Oddiyligi (Soddalik)*. Ko'pchilik ma'lumotlar tuzilishini taqdim etishda ikki o'lchovli jadvallardan foydalanish eng oddiy usul hisoblanadi.

- *Ixchamligi (Moslanuvchanlik)*. Proektsiyalash va bog'lash operatsiyalari munosabatlarni kesmoq va yopishtirmoqqa yo'l qo'yadiki, unda amaliy dasturchilar har xil fayllarni kerakli formada olishi mumkin.

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

- *Muayyanligi (Aniqlilik)*. Matematik aniq usullar bilan MB manipulyatsiya qilinadi. Munosabatlar o'z tabiatiga ko'ra muayyan ma'noga ega bo'ladilar va matematik muayyan usullar bilan manipulyatciya qilish, munosabatlar algebrasi va hisoblab chiqiladigan munosabatlarga asoslangan.

- *Maxfiyligi*. Maxfiylik nazorati soddalashtiriladi. Har bir munosabat uchun kirish imkoniyati haqliligi beriladi. O'ziga xos maxfiylik ma'nosida ko'rsatkichlarning kirish imkoniyatini tekshirish huquqi talab qilinadi. Agar kirish imkoniyati huquqi buzilmagan bo'lsa, amaliy dasturlardan ma'lumotlarni kiritish, ishlov berish mumkin bo'ladi.

- *Bog'langanligi*. Relyatsion tasavvurlar turli munosabatlar atributlarini o'zaro aloqadorligi to'g'risida aniq ko'rinish beradi.

- *Oddiy boshqarilishi*. Ikki o'lchovli jadvallarni jismoniy joylashtirish sodda bo'ladi. Xotirani jismoniy tashkillashtirishning yangi vositalarini ixtiro qilish natijasida joylashtirishning yangi optimal imkoniyatlari paydo bo'lmoqda.

- *Ma'lumotlar mustaqilligi*. MB ga yangi atributlar va munosabatlarni qo'shilishi. Ma'lumotlardan foydalanish usullari ham o'zgaruvchan. Yangi kortejlar qo'shilishi va eskilari chiqarib yuborilishi mumkin. Xuddi shu narsa ma'lumotlar elementiga ham tegishli. MB ni me'yoriy shaklda tashkil etishda mustaqil dasturiy ta'minoti bilan ma'lumotlarni restruktrizatsiya qilish amaliy dasturlarni o'zgartirilishini talab qilmaydi. MB da o'zgarishlar amalga oshirilsa, ya'ni, mavjud atribut bir jadvaldan boshqasiga o'tkazilsa hamda amaliy dasturlar tasvir (view) jadvallar bilan bog'langan bo'lsa, bu amaliy dasturlarni o'zgartirishni talab qilmaydi.

- *Ma'lumotlar bilan manipulyatciya qilish tili*. Relyatsion MB uchun yagona SQL tilidan foydalilaniladi.

Relyatsion model MB tuzilmasini soddalashtirishga bo'lgan urinish natijasida vujudga keldi. Dastlabki relyatsion MBBT larida Kodd modelining ayrim asosiy qismlari amalga oshirilmadi va bu bo'shliq keyinchalik to'ldirildi. Relyatsion konseptsianing ommalashuvi bilan o'zi relyatsion bo'limgan ko'pgina MB lari ham relyatsion deb atala boshlandi. Shu sababli, "relyatsion" atamasining

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

noto'g'ri qo'llanilishiga javoban, 1985-yilda Kodd maqola yozdi va unda relyatsion nomiga da`vogarlik qiluvchi ixtiyoriy MB qanoatlantirishi kerak bo'lган 12 qoidani keltirdi.

Koddning 12 qoidasi. Kodd relyatsion modeli quyidagi asosiy tushunchalarga asoslanadi: jadval, munosabat, satr, ustun, birlamchi kalit, tashqi (ikkilamchi) kalit. Kodd relyatsion MB bilan ishlovchi MBBT uchun 12 ta qoida ishlab chiqdi. Ular relyatsion MB tushunchasini rasmiy ta`rifi hisoblanadi. Relyatsion MBBT qanoatlantirishi lozim bo'lган 12 qoida quyidagicha:

1. *Axborot qoidasi.* MB dagi barcha ma'lumotlar mantiqiy darajada ifodalanishi kerak bo'lib, ular faqat jadvalda saqlanadigan qiymat ko'rinishida ifodalanishi lozim.

2. *Kafolatlangan murojaat qilish qoidasi.* Relyatsion MB dagi barcha va har bir ma'lumot elementiga mantiqiy murojaat jadval nomi, birlamchi kalit va ustun nomi orqali amalga oshirilishi lozim.

3. *Haqiqiy bo'lмаган qiymatni qo'llab-quvvatlash qoidasi* (bo'sh qiymatni mavjud bo'lishi qoidasi). Haqiqiy relyatsion MB da bo'sh qiymatni qo'llab—quvvatlash amalga oshirilishi lozim. Bu qiymat nol uzunlikdagi qiymatlar satri, bo'sh probel simvol satri va nol soni yoki ixtiyoriy boshqa sondan farq qilishi kerak va biror ma'lumotlar tiliga bog'liq bo'lmasligi lozim.

4. *Relyatsion modelga asoslangan dinamik katalog qoidasi.* Mantiqiy darajadagi MB tavsifi shunday ko'rinishda ifodalanishi lozimki, mos huquqga ega bo'lган foydalanuvchilar relyatsion til orqali asosiy ma'lumotlar bilan ishlaganlarida ularni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lsinlar.

5. *Relyatsion tizimda turli tillarni va foydalanuvchi bilan ishdaydigan turli rejimlarni qo'llab-quvvatlashi lozim.* Relyatsion MBBT da hech bo'lmaganda bitta biror bir qat'iy aniqlangan sintaksisli simvollar satri ko'rinishdagi operatorlarga ega bo'lган til bo'lishi lozim. Bu til quyidagi elementlarni qo'llab-quvvatlashi lozim:

* ma'lumotlarni aniqlash;

* ko'rinishlarni aniqlash;

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
	Bajardi	Razzoqova.M				
	Rahbar	Muradova.F				

- * ma`lumotlar ustida amal bajarish;
- * yaxlitlik shartlari;
- * ma`lumotlarga murojaat qilish huquqlari;
- * tranzaktsiya chegarasi (boshlanishi, tugallanishi).

6. *Ko'rinishlarni o'zgartirish qoidasi.* Nazariy jihatdan o'zgartirish mumkin bo'lgan barcha ko'rinishlarni o'zgartirish imkoniyati.

7. *Qo'shish, o'zgartirish va o'chirish qoidasi.* Munosabatlar bilan ishlashda bir operand orqali nafaqat ma`lumotlarni o'qish imkoniyati, balki ularni qo'shish, o'zgartirish va ko'chirish imkoniyatlari ham bo'lisi lozim.

8. *Jismoniy ma'lumotlarga bog'liqmaslik qoidasi.* ma`lumotni saqlash yoki ularga murojaat qilish uslubida ixtiyoriy o'zgartirish bo'lishidan qat'iy nazar ma`lumotlar bilan ishlovchi amaliy dasturlar va utilitalar faqat mantiqiy darajadagi ma`lumotlar bilan ishlashi lozim.

9. *Mantiqiy ma'lumotlarga bog'liqmaslik qoidasi.* Tayanch jadvaldagagi ma`lumotlarga ixtiyoriy o'zgartirish kiritilganda ham ular bilan ishlovchi amaliy dasturlar va utilitalar o'zgartirilmasligi lozim.

10. *Yaxlitlik shartining bog'liqmasligi qoidasi.* Yaxlitlik shartini aniq relyatsion MB uchun maxsus tilda, amaliy dasturda emas, balki MBBT ni o'zida aniqlash imkoni bo'lisi lozim.

11. *Tarqalishga bog'liqmaslik qoidasi.* Relyatsion MBBT biror bir mijozning talablariga bog'liq bo'lmasligi lozim.

12. *Yagonalik qoidasi.* Agarda relyatsion MB da quyi darajadagi til (bir martada bitta yozuvni qayta ishlovchi) mavjud bo'lsa, uning yuqori darajadagi relyatsion tilini ishlatish lozim.

Sodda qilib aytganda relyatsion MB deb foydalanuvchi ishlatadigan barcha ma`lumotlar jadval ko'rinishida tashkil etilgan va bu ma`lumotlar ustida bajariladigan amallar esa jadvallar ustida bajariladigan amallar deb tushuniladigan MB ga aytildi. Hozir relyatsion MB davri o'z o'rnnini boshqa modellarga bo'shatib bergani yo'q. Bu model asosida ishlovchi eng ko'p tarqalgan 'mijoz-server'

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma`lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

texnologiyali MBBT Oracle (Oracle kompaniyasi), MS SQL Server (Microsoft kompaniyasi), DB2 , Informix Dynamic Server (IBM kompaniyasi) hisoblanadi.

MBBT va MB taraqqiyot tendentsiyasi. Axborot texnologiyalarini qo'llash sohalarining kengayishi zamonaviy MBBT lar oldiga foydalanuvchilar va axborotlar tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni osonlashtirishga qaratilgan bir qator yangi talablarni qo'ydi. Bu talablar quyidagi vazifalarni hal etish orqali amalga oshiriladi:

- foydalanuvchining (amaliy dasturlardan) MB bir tizimidan boshqa tizimiga o'tishi uchun bir xillashtirilgan interfeysni ta'minlash;
- ba'zi ma'lumotlar modeli uchun ma'lumotlar bilan amal bajarish tilining standart kichik 'ko'pligi ni ajratish. Bu ma'lumotlar yangi ishlab chiqilayotgan MBBT lardan ehtimol tutilgan foydalanuvchilarga mo'ljallangan. Ularda quyidagilar ko'zda tutilgan: MB ni bir model ichida bir xilda taqdim etish, muloqot qilish va dasturlashtirishning hech bo'limganda yetarlicha namoyon bo'ladigan kesishuvlarga ega bixillashtirilgan vositalari. Qurilishiga ko'ra farqlanadigan kompyuterlar (platformalari) yoki ma'lumotlarning bir xil modelini ta'minlovchi MBBT bilan turli operatsion tizim muhitlarida ishlayotgan foydalanuvchi nuqtai nazaridan, uning bu MBBT lar bilan o'zaro aloqasi shu tariqa bixillashtirilgan bo'lishi zarur;
- MB muhitida ishlovchi amaliy dasturlarni avtomatik loyihalashning yanada rivojlangan vositalarini yaratish;
- LISP, Prolog kabi sun'iy idrok tizimlari uchun instrumental vosita sifatida foydalaniladigan dasturlar tizimiga ega bo'lgan MBBT larning interfeyslarini rivojlantirish;
- dasturlashtirishning an'anaviy tizimlaridan MBBT ga murojaat qilishning bir xilligini ta'minlash. Bu MBga murojaat qilishlardan foydalanuvchi amaliy dasturlarning safarbarligiga zamin yaratadi.

Interfeyslar tizimi asosida ko'rsatib o'tilgan talablarni bajarishga olib keluvchi ikki yo'l ko'zga tashlanadi. Bular standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO) ning faoliyati va System Application Architecture (SAA)

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
	Bajardi	Razzoqova.M				
	Rahbar	Muradova.F				

tizimlarini qo'llash arxitekturasining kontseptsiyasidir. SAA IBM firmasi tomonidan tavsiya etilgan. Bunda ISO ning faoliyati, ma'lumki, turli tuzilishdagi ma'lumotlarni ishlashning ochiq tizimi uchun muammolarning juda keng qatlagini qamrab oladi. SAA kontseptsiyasi esa, ko'proq xususiy vazifalarning yechimi bo'lib, IBM firmasining faqat uchta sinfi uchun e'lon qilingan. Biroq, ushbu yo'nalihsalar belgilab berilgan bir qator vazifalar va yechimlar, ko'p jihatdan bir-biriga muvofiqlashtiriladi.

MBBT sohasida standartlashtirish bo'yicha xalqaro faoliyat 1989 yilda SQL MB ning tili xalqaro standarti ishlab chiqilgandan so'ng, ISO ni ishi asosan quyidagi ikki yo'nalihsda olib borildi:

- ochiq tizimlarda taqsimlangan ishlov kontseptsiyasini rivojlantirish. Bu MBBT uchun tranzaktsiyalar (shuningdek, qaydnomalar va xizmatlar) taqsimlangan ishlov berish va kompyuter tarmog'idagi yo'qotilgan MB ga kirish kontseptsiyasini ishlab chiqishga olib keladi;
- korxonalar yoki tashkilotlar axborot zahiralarining lug'at tizimlari uchun tamoyillar va interfeyslar tizimini belgilash.

Bu yo'nalihsda qilinayotgan ishlar SQL MB tilini takomillashtirish va kengaytirishni talab qiladi. Bu ham mavjud standartga qo'shimchalar kiritish shaklida, ham SQL2 va SQL3 yangi standartlarining loyihalari ko'rinishida amalga oshirilmoqda.

Ma'lumotlarni boshqarishning o'lchov modelini standartlashtirishda standartlar tizimining shunday tuzilishini belgilashi kerakki, undan MBBT sohasida ham ishlab chiqilgan, ham ishlab chiqilayotgan istiqbolli standartlar samarali joy olishi mumkin bo'lsin. O'lchov modelini ishlab chiqish MBBT standartlarini NDL (tarmoq turi), SQLflam MB ko'rinishlariga tegishli bo'lgan sohalarda, shuningdek, yo'qotilgan MB ga kirish va axborot zahiralari lug'ati tizimida rejalashtirilgan rivojlantirish asosida olib borilmoqda. Umuman, yangi model ochiq tizimlarning o'zaro aloqasi o'lchov modeliga tegishli bo'lgan standartlarga asoslanadi. MBBT ning o'lchov modeli MBBT ni standartizatsiya qilish jihatlarini shunday tasnif qiladiki, unda MBBT o'z funksional xususiyatlari

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

va loyihalashning turli bosqichlarida ma`lumotlarni ta`riflash darajasiga bog`liq holda ko`rib chiqiladi.

Amaldagi vazifalar bo'yicha tasniflash ma`lumotlarni boshqarishga xizmat ko`rsatishni to'rt qiymatini ajratishga imkon beradi: bazisli, ma`lumotlar bazalari, instrumental va foydalanuvchining talablariga xizmat ko`rsatish.

Bazisli qatlam ma`lumotlar blokini ularning mazmunini xususiyatlashtirmasdan saqlash va chiqarib olish uchun xizmat ko`rsatadi. MB larining qatlami ochiq hisob tizimi ichida MB bilan ishslash uchun asosiy xizmatlarni taqdim etadi. Bu xizmatlar, ochiq, tizimlar o'zaro ta`sirining o'lchov modelini ta`riflovchi xizmatlarga aloqador emasligi nazarda tutiladi. Instrumental qatlam bir turda jonli ma`lumotlar to'plamini, turli ochiq hisob tizimlarida lokallashgan, taqsimlangan MB ga kirishni ta`minlash uchun xizmatlar to'plamini taqdim etadi. Foydalanuvchining talablariga xizmat ko`rsatish qatlami oxirgi foydalanuvchining hisoblash tizimi bilan o'zaro ta`sirini engillashtiradigan ma`lumotlarni boshqarishga xizmat ko`rsatishni ta`riflashga mo`ljallangan. Ekran interfeysi va ekran pochta tizimi shunday xizmatlarga misol bo`la oladi. Ma`lumotlar ularda mavjud ta`rif darajasiga ko`ra, amaliy, lug'atli, lug'atni va axborotlar tizimi uchun asosiy tushunchalarni saqlovchi ma`lumotlarga bo`linadi. Bu tasniflarning uyg'unligi standartlar tizimining tuzilishini belgilab beradi.

MB tilini yaratish bo'yicha ishlar dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi: MB kontseptual tillari va o'qish asosini aniqlash va tahlil etish. MB ning kontseptual tillari bo'yicha tavsiyalarni baholash uchun metodologiya ishlab chiqish, shu o'ringa nomzod sifatida tavsiya etilgan MB tillarini baholash, kontseptual darajadagi MB tillari foydalanuvchisining asosiy imkoniyatlarini tanlab olish. Bu sohadagi eng sezilarli natijalar — standartlar sifatida NDL tarmoq va SQL relyatsion ko'rinishdagi MB tillarining qabul qilinishi bo'ldi.

Korxona axborot resurslari lug'atining tizimlarini yaratish bo'yicha ishlar loyihalashtirilmoqda. Bunday tizim foydalanuvchiga ixtisoslashgan MB ni taqdim etadi. Ularga tizimni qo'llashiga qarab MB, ma`lumotlar to'plami, dasturlar va hokazolar kiradi. Standartning asosini lug'at bilan qo'llab-quvvatlanadigan,

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma`lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

ma`lumotlar modelini ta`riflash, lug`at ma`lumotlari bilan amallar bajarish uchun buyruq, tili va tizimdan foydalanuvchiga muloqotli kirishning ekranli interfeysi tashkil etiladi.

Bundan tashqari yadroni kengaytirish, masalan, amaliy dasturlar uchun interfeyslar taalluqli bo`lgan modullar deb nomlangan standartlar tavsiya etiladi. Bunday modullilik ko`rsatilgan standartni axborot zahiralari lug`ati tizimida foydalanishning yangi usullari paydo bo`lishiga qarab qengaytirish uchun yo`l ochib qo'yadi.

So`nggi paytlarda tarmoq orqali ma`lumot almashish texnologiyalari shiddat bilan rivojlanmoqda. Bular Internet tarmog'i, mobil va simsiz hisoblash vositalari hamda “intellektual” qurilmalardir. Tarmoq orqali ma`lumot almashish shiddat bilan rivojlanayotganligi, MB ga uzoq masofalardan murojaat qilish ehtiyoji oshishiga olib keldi. Uzoq masofalardan MB ga murojaat qiluvchi foydalanuvchilar ehtiyojini tez qondirish maqsadida taqsimlangan MB yaratildi. Taqsimlangan MB axborot texnologiyalarining MB sohasidagi eng katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Taqsimlangan MB texnologiyasi ma`lumotlarni qayta ishslashning markazlashgan turidan, unga teskari bo`lgan markazlashmagan turiga o'tishga zamin yaratmoqda.

Taqsimlangan MB – bu o`zaro mantiqan bog`langan va kompyuter tarmog'ida jismoniy jihatdan tarqoq joylashgan taqsimlangan ma`lumotlar to'plamidir.

Taqsimlangan MB ma`lumotlarni qayta ishslashning bu kesishuvchi va hatto takrolanuvchi ma`lumotlar saqlanadigan bir nechta serverlardan foydalanishni talab etadi. Bunday MB bilan ishslash uchun taqsimlangan MBBT ishlatiladi. Taqsimlangan MBBT taqsimlangan MB ni boshqarish uchun mo`ljallangan va foydalanuvchilarga taqsimlangan ma`lumotlarga oson murojaat usulini ta`minlab beruvchi dasturiy majmuadir.

Bir jinsli va bir jinsli bo`lmagan taqsimlangan MB bo`lishi mumkin. Bir jinsli holatda har bir lokal MB birdan bir MBBT orqali boshqariladi. Bir jinsli bo`lmagan tizimda lokal MB lari turli xil modellarga tegishli bo`lishi mumkin. Bir

O`zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma`lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
Bajardi	Razzoqova.M					
Rahbar	Muradova.F					

jinsli bo'limgan MB ning tarmoq integratsiyasi dolzarb va juda murakkab muammo hisoblanadi. Ko'pgina yechimlar nazariy jihatdan yechilgan, ammo shu kungacha bosh muammo-integratsiyalashgan tizimning unumdonligi yetarlicha hal qilinmagan.

Bir jinsli bo'limgan SQL – yo'naltirilgan tizim oraliq masalasi amaliy jihatdan yetarlicha muvaffaqiyat bilan hal qilinmoqda. Bunga SQL tilining standartlashtirilganligi va MBBT ni ishlab chiquvchilarining ochiq tizim tamoyiliga umumiylar tarzda rioya qilishi sabab bo'lmoqda

Integrallashgan tizim va ma'lumotlar multibazasi. Turli xil modeldagi modellarni turli xildagi MBBT orqali boshqarilishi natijasida kompleksli MB tizimi zarurligi tufayli bir jinsli bo'limgan MB larning integrallashgan yoki federativ tizimi va multi MB yo'nalishi vujudga keldi.

Bir jinsli bo'limgan MB ni integratsiyalashning asosiy masalasi foydalanuvchilarga ma'lumotlarning ba`zi bir modellarini vakili sifatida MB global sxemasining integrallashgan tizimini taqdim qilish va MB manipulyatsiya operatorlarini mos lokal MBBT ga tushunarli bo'lgan global darajadagi operatorlarga o'tkazishdir. Nazariy jihatdan o'tkazish muammosi hal qilingan, tadbiq mavjud. Bir jinsli bo'limgan MB qat'iy integratsiyalansa lokal tizimning MB o'z avtonomligini yo'qotadi. Lokal MB federativ tizimga kiritilsa administralash bilan birgalikdagi barcha harakatlar global darajada bo'lishi kerak. Ammo, foydalanuvchilar ba`zan barcha lokal MBBT lari bilan bir tilda ishslash va turli lokal MB ni bir vaqtida ko'rsatgan holda so'rovlarni tuzish uchun lokal avtonomlikni yo'qotishni istashmaydi. Shu sababli, multi MB yo'nalishi rivojlanmoqda.

Multi MB da integrallashgan MB global sxemasi qo'llab-quvvatlanmaydi va lokal MB ob'ektlariga ruxsatda maxsus uslublar qo'llaniladi. Bunday tizimlarda global darajada ma'lumotlarni tanlashga ruxsat beriladi, Bu esa lokal MB avtonomligini saqlashga imkon beradi.

O'zg	Varaq	Hujjat №.	Imzo	Sana	Boshqaruv texnik tizimlarda ma'lumotlar bazasi modulining Moodle tizimidagi elektron papkasini yaratish.	Bet
	Bajardi	Razzoqova.M				
	Rahbar	Muradova.F				

1.2. “BOSHQARUV TEXNIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLAR BAZASI MODULINING” modulini o’qitishdagi innovatsiyalar va ilg’or xorijiy tajribalar.

